

Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail:sodiqovjaxongir827@gmail.com

Tel: +998777779778

UDK: 091.122

TEXNOSFERANING BIOSFERAGA TA'SIRI VA AYANCHLI OQIBATLARI

Annotatsiya. Maqolada tabiat-jamiat-inson o'rtasidagi aloqalar va munosabatlardagi o'zgarishlar, hozirgi kunda asosiy muammo bo'lib borayotgan texnologik ixtirolar va yangiliklarning ekologiyaga ta'siri, bizni qurshab turgan tabiatga nisbatan yangicha yondashuvning tarixiy asoslari, rivojlanish sabablari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ekologik axloqiy munosabatlar haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar o'zaro solishtirilib qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik globallashuv, biosfera, texnosfera, ekologik axloq, atmosfera, megadunyo, ehtiyojlar, demografiya, tur populatsiyasi, sun'iy intellekt.

Садиков Жахонгир Ташпулат угли

Преподаватель Шахрисабзского

государственного педагогического института

Э-почта:sodiqovjaxongir827@gmail.com

Тел: +998777779778

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОСФЕРЫ НА БИОСФЕРУ И ПЕЧАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются исторические основы, причины развития и влияние нового подхода к окружающей нас природе на будущее, изменения в отношениях между природой, обществом и человеком, а также технологические достижения, которые в настоящее время становятся главной проблемой. Также был проведен сравнительный анализ и сопоставление научно-теоретических представлений об экологических этических отношениях.

Ключевые слова: экологическая глобализация, биосфера, техносфера экологическая этика, атмосфера, мегамир, потребности, демография, популяция видов искусственный интеллект.

Sadikov Jahongir Tashpulat ugli

Teacher of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

E-mail:sodiqovjaxongir827@gmail.com

Phone: +998777779778

THE IMPACT AND SAD CONSEQUENCES OF THE TECHNOSPHERE ON THE BIOSPHERE

Annotation. The article, talks about the changes in the relations and relationships between Nature-Society-man and the historical foundations of a new approach to nature, the reasons for development and its impact on the future generation, which is now surrounded by technological inventions and innovations that are the main problem. There was also a comparative analysis of the scientific and theoretical opinions on ecological ethical relations.

Keywords: ecological globalization, biosphere, technosphere, environmental ethics, atmosphere, megaworld, needs, demography, species population artificial intellect.

Kirish.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida kundalik ehtiyoj mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish va ekologik zararlanishni ta'siridan himoyalash hamda qulay sharoit yaratish maqsadida inson o'z qo'li bilan “**ikkinchi tabiat**”ni yaratishda davom etmoqda. Insoniyatning oxirini o'ylamay tabiat resurslaridan ayovsiz foydalanishi bugungi kunda resurslar taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Bu muammolar yechimini biz yashayotgan makonda “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarining murakkablashuvi, ikkinchi tomondan, jamiyat ijtimoiy ong tizimidagi ekologik ongning kundalik va nazariy darajalari, paradigmalari o'zgarib turish xususiyatlaridan qidirish zarur. Zero, har qanday tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mohiyatini, rivojlanish darajasini baholaydigan mezonlar tarkibida ekologik huquq-axloq doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan. Shu sababli

texnogen jamiyat taraqqiyotiga meyoridan ortiq urinishlar ekologik muhit inqirozi tomon yo'l ochdi. Mavjud ekologik inqiroz tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishni, jamiyat hayotining asosiy paradigmasiga aylantirmoqda. Ushbu mavzuga doir ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratish va muammolar yechimining nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

Texnosferaning biosferaga ta'siri bugungi kunga qadar bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu borada ayniqsa, Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan [2]. Xususan, Yurtboshimiz mazkur asarida bugungi kundagi global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari, dunyo hamjamiyatining global iqlim o'zgarishlariga nisbatan hamkorligi kabi masalalarga ahamiyat qaratilgan. Shuningdek, D.Yormatova [7], O.J.Xolmuminov [6] kabi tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida ekologik tarbiya, uni shakllantirish yo'nalishlari, tabiat muhofazasining biosferani asrab-avaylashdagi o'rni kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuning ilmiy metodologiyasini yoritishda analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Bugungi kunga kelib texnosfera atamasi kundalik hayotning muhim qismiga aylanib bormoqda. Insonlarning yashash sharoiti texnologiya orqali standartlashtirilmoqda. Kishilik jamiyati rivojlanib borgan sari yangiliklarga o'chlik holati kuchayib bormoqda. Rivojlangan davlatlarning yaxshi turmush sharoitini ta'minlashga va shu orqali farovon jamiyat qurishga intilishi yangidan-yangi hududlarni o'zlashtirish, tabiiy resurslarni yanada ko'proq ishg'ol qilish imkoniyatini kengaytirib yubormoqda. Aholi sonining ortib borishi iste'mol savatidagi mahsulotlar sonini ko'payishiga, bu o'z navbatida yangi texnologiyalarning yaratilishiga, ularni jonli tabiatda turli maqsadlarda ishlatishiga zamin hozirladi. Texnologik jamiyat taraqqiyoti insonning turli yumushlarini

osonlashtirdi, turmushida qulayliklarni yaratdi[1]. Lekin shu bilan birgalikda tabiatga zarar keltirish ekologik muvozanatdagi o'zgarishlarga, inson salomatligida uchrayotgan kasallik turlarining ko'payishiga, kundalik ehtiyojda zarur bo'lgan tabiiy mahsulotlarning kamayishiga sabab bo'ldi.

BMT atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko'ra, inson faoliyati yer kurrasi quruqlik qismining to'rtidan uch qismi, suv havzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o'zgartirdi [4]. Insonning dastlabki sayohatlari tabiatni o'rganish va ular haqida ma'lumotlar to'plash maqsadida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik unga siyosiy tus berildi. Yangi o'zlashtirilgan hududlar atrofida kichik shaharchalar, zavodlar, boshqa infrastruktura tuzilmalari bunyod etildi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad tabiiy boyliklarni ko'proq ishg'ol etish, turmush sharoitini bundanda yaxshilash, cheksiz iqtisodiy rivojlanish va katta hududlarga egalik qilish hisoblangan. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ba'zi mamlakatlar aholisining tabaqalashuvi o'z navbatida elita qatlam vakillari bo'sh vaqtining ko'payishiga, turli ko'ngilochar tadbirlarga mukkasidan ketishiga, ehtiyojdan ortiq iste'molga ruju qo'yishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik uchun olamshumul ixtiro sifatida qaralgan va insonlarga boshida bilim ulashish vositasi sifatida e'tirof etilgan kitob bosish dastgohi keyinchalik yer sharining o'pkasi hisoblangan o'rmonlar sonining qisqarib ketishiga sabab bo'ldi. Keyingi besh yil ichida yashil o'rmonlarning 32 million gektar maydoni inson omili natijasida qisqardi.

Bugungi hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ammo barqaror rivojlanish kafolati sifatida qaralayotgan texnologiyalar katta-katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, genetika sohasidagi tajribalar va klonlashtirish ishlari natijasida yovvoyi jonivorlar turlarining rang-barangligi chorak qismga qisqarishi mumkinligi aytilmoqda. Inson tomonidan suv osti va ustida yangidan yangi resurslarni izlash maqsadida biosfera qatlamini yorib o'tib texnologiyalar ta'sirida tabiatga chuqur zarar berilayotgani tobora oydinlashib bormoqda. Oziq-ovqat, toza ichimlik suvi, yoqilg'i manbasini kengaytirishga bo'lgan urinishlar o'z navbatida haroratning ko'tarilib ketishi va tabiiy muhitdagi jonli mavjudotlarning harakat yo'nalishi, ko'payish jarayoni va ayrim turlarning

kamayib nobud bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunda antropologik omillar eng kuchli omillardan biri hisoblanmoqda. Inson tabiatga ko'rsatadigan eng kuchli ta'siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o'zgartirdi. XX asrning 80-90 yillari kosmosga sun'iy yo'ldoshlar va kosmik kemalar parvozinig muttasil ravishda ortib borishi va ularning qaytib tushish holati bo'yicha hech qaysi davlat javobgarlikni o'z bo'yniga olmadi va asosiy tushish joyi sifatida Shimoliy muz okeani hududi tanlandi. Doimiy bir yo'nalishda qo'ndirish va tushish holati aynan ozon qatlamining yorilishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, aholi sonining ortishi va iste'mol ehtiyojlari tufayli tashkil etilgan issiqxonalar tarmog'idan chiqayotgan gazlar ham sezilarli ta'sirini ko'rsatib, havoning ifloslanish darajasini oshirdi. Shu tariqa, inson million yil davomida tarkib topib borgan dunyo manzarasini bir necha o'n yilda o'zgartirib yubordi.

Ilk insonlar tabiat hodisalarini aniq darajada anglamagan paytda biosfera barcha tirik jonzodlar uchun yetarli imkoniyatlarni taqdim etgan. Insonlar jamoaga birlashib kichik jamiyatlarni tashkil eta boshlagan vaqtlarda iqtisodiy-ijtimoiy va moddiy ehtiyojlarni qondirish zaruriyati bir muncha og'irroq edi [2]. Aqlli jamiyatning yuzaga kelishi inson oldida faqat o'z harakatlari va ma'naviy tafakkuri orqali yo'l topish mumkinligini anglatdi. Shuning zamirida dastlabki ixtirolar va yangiliklar ijtimoiy hayotga kirib kela boshladi. Tabiat ichida sun'iy tabiatni yaratishi ekologik muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Inson ko'proq tabiatga ta'sir etish jarayoni kun sayin ortib bordi. Insonlarning ongli ravishda o'simlik va hayvon turlarini yer sharining bir joyidan ikkinchisiga ko'chirishi flora va fauna tarkibini bir muncha o'zgartirdi.

Uzoq davrni o'z ichiga olgan rivojlanish jarayoni iqtisodni turli usullar bilan boyitish maqsadida qit'alararo masofani bog'lovchi savdo (dengiz va temir) yo'llarining ochilishi qudratli davlatlarga keng imkoniyat eshiklarini ochdi. Ekspansion jarayon kuchayib rivojlangan davlatlar rivojlanish arafasidagi davlatlar tabiiy resurslarini ayovsiz ishg'ol etdi. Uzoq davom etgan tabiiy resurslar talon-taroji global darajadagi ekologik muammoni shakllantirdi. Garchi, har bir mintaqada mamlakatlar tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali

foydalanish borasidagi xalqaro huquqiy-meyoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, amalda tatbiq etish mexanizmi yaxshi ishlayotgani ko'zga tashlanmoqda. Masalan, ba'zi davlatlar sanoat chiqindilarini dengiz va okeanga oqizishmoqda, qurol-yarog' sinovlarini o'tkazishmoqda va zamonaviy harbiy qurol-yarog' omborini hozirlamoqda. Haqiqiy demokratiya va adolat o'chog'i deb bong urilayotgan G'arby Yevropa va Amerika XIX asr ikkinchi yari va XX asr boshlarida son-sanoqsiz yovvoyi hayvonlar qirg'ini, o'rmonlar maydonlari qisqartirilishiga sababchi bo'ldi. Jahonda yemirilgan va yuvilgan yerlar 40 mln.ga yetdi [3]. Ilmiy-texnologik yutuqlar o'tgan asrda ekologik xavfsiz muhitni saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvlar va sovuq urushlarda g'olib chiqishga qaratilgan hamda hukumatning va ayrim qatlam vakillarining boyishiga xizmat qilgan. Keyinchalik, iste'mol ehtiyoji turlarining oshib borishi zamonaviy uskunalar orqali yarim tayyor va bir martalik mahsulotlar jahon bozorida va internet dunyosida ommalashdi. Natijada shaharlar, qishloq va o'vullar, daryolar, dengizlar, okeanlar havzasi chiqindilarga to'lib ketdi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda har bir davlat ekologik muhit barqarorligini ta'minlashga majbur. Chunki ekologik muhitni asrab-avaylash bir davlat yoki ma'lum mintaqa xalqlari sa'y-harakatlari bilan amalga oshadigan jarayon emas. Bu umuminsoniyat va xalqaro hamkorlikning yakdil hamjihatligi asosida erishiladigan masaladir. Atrof-muhitni barqarorlashtirishga urinilayotgan umuminsoniyat harakatida ayrim davlatlarning e'tiborsizligi ekologik muhit inqiroziga sabab bo'laveradi. Ekologik barqarorlik ekologik ong, ekologik madaniyat takomili va mavjud xalqaro qonunchilikning mustahkam amaliyoti, o'zaro yakdillikning to'la ta'minlanishida kuzatiladi.

Umumiy xulosalarga ko'ra quyidagi taklif-tavsiyalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, atrof-muhitga zarar bermaydigan zamonaviy texnologiyalarni ko'paytirish, ekologiyaga zarar beruvchi texnologiyalardan butkul voz kechish,

atrof-muhitni ifloslantiruvchi texnika va uskunalardan foydalanish uchun qonunchilikda javobgarlikni kuchaytirish lozim;

ikkinchidan, ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirish, ta'lim muassasalarida ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlar tarkibidagi ekologik mavzularning ketma-ketlikdagi integratsiyalashuvini ta'minlash kerak;

uchunchidan, tabiiy boyliklar va qurilayotgan inshootlarni qanchalik tabiatga zarari va foydasi bo'yicha monitoring va ekspertiza qiluvchi mutaxassislar malakasini oshirish, kadrlar yetishmovchiligi holatlarini bartaraf etish, ekologiyaga mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlar o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish lozim;

to'rtinchidan, kam quvvat talab etadigan muqobil energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanish, shamol, quyosh elektrstaniyalariga bosqichma-bosqich o'tib borish, aholi uylariga elektro panellarni o'rnatishda subsidiyalarni ajratish imkoniyatlarini yaratish kerak;

beshinchidan, har bir viloyatning aholi soni ko'p shaharlarida haftada bir kun "mashinasiz hayot" dasturi asosidagi tadbirlarni joriy etish, sport marofonlari, sog'lom turmush-tarzini targ'ib qiluvchi turli tadbirlarni uyushtirish;

oltinchidan, aholining turli yosh qatlamlarini, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarini yashil makon dasturiga jalb etishning qonuniy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar

1. Amonov B.N. Shortage and Problem of Drinking Water in Central Asia. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. 2023 – P. 504-509.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022 – 486 b.
3. Omonov B. N. Ochilova G.A. Specific characteristics of the ecological environment in Uzbekistan. World of Scientific news in Science. 2023. –P. 15-28.

4. Omonov B. Problems and Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. 2021. – P. 132-138.
5. Omonov B.N. Markaziy osiyo mamlakatlarida mintaqaviy integratsiya–muammolar yechimining asosiy omili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Toshkent: 2024. – B.529-535.
6. Xolmuminov O.J. Ekologiya huquqi. – Toshkent. 2014. – 207 b.
7. Yormatova D. Ekologiya. – Toshkent: 2012. – B. 15-17.